XALQ DEPUTATLARI NUROTA TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-4-023-5-74-K/24 Nurota tumani

Nurota tumanining 2025-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27, 99-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-sonli Qonuniga asosan, Xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashining VII-3-025-5-0-K/24-sonli qaroriga muvofiq, Xalq deputatlari Nurota tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1.O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-sonli Qonuni ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2.Xalq deputadlari Navoiy viloyati Kengashining VII-3-025-5-0-K/24-sonli qaroriga muvofiq, Nurota tuman mahalliy byudjetining 2025-yil uchun daromadlari 50 915 000,0 ming so‘m, xarajatlari 102 683 771,0 ming so‘m prognoz qilinganligi hamda viloyat byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar 51 768 771,0 ming so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3.2025-yil uchun Nurota tumanini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi hamda 2025-yilga maqsadli mo‘ljallari 1-ilovaga muvofiq, 2025-yil uchun tuman mahalliy byudjeti daromadlari prognozi 2-ilovagamuvofiq ma'lumot uchun qabul qilinsin.

4.2025-yil uchun tumanning hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5.2025-yil uchun tuman byudjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6.2025-yil uchun tuman mahalliy byudjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi 5-ilovaga muvofiq ma'lumot uchun qabul qilinsin.

7.2025-yil uchun Navoiy viloyatining viloyat byudjetidan Nurota tuman mahalliy byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdori 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

8.2025-yil uchun tuman byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi o‘tgan yilgidan kam bo‘lmagan miqdorda 1 444 334,0 ming so‘m etib tasdiqlansin.

Tuman byudjetiniijro etishda yuqori turuvchi byudjetdan ajratiladigan byudjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli byudjetlarining zaxira jamg‘armalar miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmasligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

9.2025-yil uchun tuman byudjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 436 704,0 ming so‘m miqdorda belgilansin.

10.Xalq deputatlari tuman Kengashiga keyingi soliq davri uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalari uchun belgilangan soliq stavkalariga tegishlicha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni hududda joylashgan daha, massiv, mahalla, ko‘cha kesimida kiritilishini ta'minlash tavsiya etilsin.

11.O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2025-yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy byudjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy byudjet xarajatlarini hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2025-yilda quyidagi soliq turlari:

a) shahar va tumanlar byudjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan jisioniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;

aylanmadan olinadigan soliq;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliq bundan mustasno);

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliq bundan mustasno);

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i tushumlarining kamida 50 foizi (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliq bundan mustasno);

davlat aktivlarini ijaraga berishdan tushumlar.

12.Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari - tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boslig‘i A.Bo‘riyev, Soliq inspeksiyasi F.Usmonov mas'ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli byudjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy byudjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas'uliyatni yana-da kuchaytirish;

tegishli mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta'minlash;

byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e'tibor qaratsin.

13.Tuman soliq inspeksiyasi F.Usmonov O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta'minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e'tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

14.Tuman soliq inspeksiyasi F.Usmonov, Kadastr agentligi tuman bo‘limi E.Ro‘zimurodov 2025-yildan boshlab yuridik shaxslar mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta'minlasin.

15.Tuman soliq inspeksiyasi F.Usmonov, tegishli tashkilotlar bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

16.Majburiy ijro byurosi tuman bo‘limi T.Jumayev tuman soliq inspeksiyasi F.Usmonov bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini byudjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

17.Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi I.Amonov jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

18.Quyi Zarafshon irrigatsiya tizimlari xavza boshqarmasi tuman bo‘limi Sh.Yalg‘ashev va tuman soliq ispeksiyasi F.Usmonov bilan birgalikda tumanda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste'mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy byudjetlarga to‘liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste'mol qilinayotgan suv resuslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e'tibor qaratilsin.

19.Kengashning mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida byudjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga monitoring qilishga;

mahalliy byudjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas'ul etib belgilansin.

20.Tuman hokimligi:

Tuman byudjeti jami xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, tuman xalq deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari

byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga ma'sul etib belgilansin;

mahalliy byudjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlari olib borilayotgan ob'ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta'mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma'lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10-sanasiga qadar majburiy tartibda tuman hokimligi rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

21.Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Bo‘riev, xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati, tegishli korxona va tashkilotlar raxbarlari:

mahalliy byudjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

22.Tuman hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma'lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta'minlasin.

23.Mazkur qarorni tuman ommaviy-axborot tarmoqlarida rasmiy e'lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

24.Ushbu qaror rasmiy e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

25.Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi va tuman hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi FAYZIYEV AZAMAT ISMATOVICH

Xalq deputatlari Nurota tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-023-5-74-K/24 -son qaroriga
1-ilova

2025-yil uchun Nurota tumanini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi

Foiz miqdorida

№	Ko‘rsatkichlar	2025-yil uchun prognoz
1.	Sanoat mahsulotlarining o‘sish sur'ati, foizda	106,8
2.	Hududiy sanoat o‘sish sur'ati, foizda	102,5
3.	Qurilish o‘sish sur'ati, foizda	106,1
4.	Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishning o‘sish sur'ati, foizda	103,5
5.	Xizmatlar o‘sish sur'ati, foizda	110,9

Xalq deputatlari Nurota tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-023-5-74-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Nurota tuman mahalliy byudjeti daromadlarining 2025-yilgi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

T/R	Daromad turlari	Miqdori (ming so‘mda)
JAMI		**50 915 000**
1	Foyda solig‘i	
2	Aylanmadan olinadigan soliq	4 338 000
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	20 844 000
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	203 000
5	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	1 756 000
6	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3 675 000
7	Yuridik shaxslar yer solig‘i	4 852 000
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	5 650 000
9	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	1 813 000
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	7 721 000
11	Davlat boji	
12	Jarimalar	
13	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	63 000
14	Davlat tashkilotlarining sof foydasidan daromad	
15	Yig‘imlar	

Xalq deputatlari Nurota tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-023-5-74-K/24 -son qaroriga
3-ilova

Tuman byudjetidan 2025-yilgi hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

MING SO‘M

№	Hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
Xarajatlar miqdori, jami		**102 683 771**
1	**Maktabgacha va Maktab ta'limi bo‘limi**	**26 763 743**
	shundan:	
	"Mening maktabim"	3 129 724
2	Tibbiyot birlashmasi	
	shundan:	
	Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi markazi	
3	**Madaniyat bo‘limi**	**2 218 233**
3,1	*Tabiiy me'moriy majmua muzeyi*	*332 271*
4	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	3 972 688
5	Sport bo‘limi	6 675 202
6	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	2 091 538
7	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi	1 537 864
8	Irrigatsiya bo‘limi	
9	Iqtisodiyot va moliya bo‘limini saqlash xarajatlari	2 264 727
10	Davlat soliq inspekciyasi	
11	Hokimyat	8 082 407
	shundan:	
	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	*61 436*
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	*34 650*
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*19 998 535*
	"Mahalla byudjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	*597 000*
	Zahira jamg‘armasi	*1 444 334*

12	Hokimyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*100 872*
	Axborot-kutubxona markazlari	*781 336*
13	Hokimyat (Obodonlashtirish boshqarmasi)	24 972 550
14	Boshqa tashkilotlar	1 086 656

Xalq deputatlari Nurota tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-023-5-74-K/24 -son qaroriga
4-ilova

Umumdavlat soliqlaridan Nurota tuman mahalliy byudjetiga ajratmalar me'yori

T/R	**Soliq turlari**	**Tuman mahalliy byudjetiga ajratma me'yori** (foizda)
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliq bundan mustasno)	50
2	Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste'molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	0
3	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliq bundan mustasno)	100
4	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliq bundan mustasno)	100
5	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno	100

Xalq deputatlari Nurota tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-023-5-74-K/24 -son qaroriga
5-ilova

2025-yil uchun Nurota tuman mahalliy byudjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi

Ming so‘mda

Hududnomi	**Daromad**	**Xarajat**
Nurota tumani	50 915 000	102 683 771

Xalq deputatlari Nurota tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-023-5-74-K/24 -son qaroriga
6-ilova

2025-yil uchun Navoiy viloyatining viloyat byudjetidan Nurota tuman mahalliy byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdori

Ming so‘mda

№	**Hudud nomi**	**Summa**	*Shundan, aksiz solig‘i tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar*
1	Nurota tumani	51 768 771	0